

## TURLI TIZIMLI TILLARDA “KO‘NGIL” LEKSIK-SEMANTIK MAYDONI TADQIQI

**Mirzayeva Dilshoda, PhD**

*Farg‘ona davlat universiteti*

**Rahimova Yulduzxon**

*Magistr, Farg‘ona davlat universiteti*

### ARTICLE INFO.

**Kalit so‘zlar:** konsept, leksika, semantika, “ko‘ngil” konsepti, turli tizimli tillar, Sanskrit, hind, ruh, leksik maydon, lotin, bibliya.

### Annotatsiya

Ushbu maqola til tizimi tushunchasi va leksik-semantik maydon haqida batafsil to‘xtalib, turli tizimli tillar haqida keng ma‘lumot beradi. Maqola ko‘ngil so‘zining izohli lug‘ati bilan ham tanishtirib, o‘zbek tilidagi bir nechta ma‘noviy birliklarini tahlil qiladi. Shuningdek, turli tizimli tillardagi “ko‘ngil” konseptining leksik-semantik jihatlarini yoritib o‘tadi va bu bo‘yicha turli tizimli tillardan turli namunalar keltiriladi. Nazariyalar misollar orqali yoritiladi.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2023 LWAB.

Insoniyat yer yuzida paydo bo‘lganidan beri erishgan eng foydali yutuqlaridan biri, shubhasiz, bu tildir. Chunki insonlarni o‘zaro birlashtiradigan va jamiyatga hissa qo‘shishga undaydigan vosita bu til sanaladi. Albatta, insonda nutqning shakllanishi va gapira olishi tug‘ma lisoniy qobiliyat ekanligini barcha olimlar va tadqiqotchilar e‘tirof etgan. Ko‘pchilik olimlarning fikricha, bu inson miya qobiliyatining dastlabki ontogenez yillaridagi birinchidan, muayyan til belgilari tizimini, ikkinchidan, matn tuzishda kerakli belgilarni tanlash qoidalarni o‘zlashtirishini ifodalaydi. Lisoniy qobiliyatni amalga oshirish atrofida muayyan til egalari bilan muloqot qilish jarayonida yuz beradi. N. Xomskiyning ta‘limotiga ko‘ra, “Lisoniy qobiliyatning tug‘ma komponenti juda sermazmun bo‘ladi, shuning uchun ontogenezda til o‘rganish “noldan” boshlanmaydi”<sup>1</sup>.

Demak, tilning jamiyatdagi o‘rni beqiyos va ko‘pchilik buni hech ikkilanmasdan e‘tirof etadi. Biroq, til tizimi tushunchasi hali oddiy insonlar orasida ko‘p ham tanish emas.

Til tizimi — har qanday tabiiy tilning o‘zaro munosabatlar bilan bog‘langan, muayyan birlik va butunlikni tashkil etuvchi lisoniy unsurlari majmui hisoblanadi. Til tizimining har bir tarkibiy qismi alohida-alohida emas, balki tizimning boshqa tarkibiy qismlariga nisbatan qarama-qarshi qo‘yilgandagina mavjud bo‘ladi.

Til murakkab butunlik bo‘lib, uning tarkibiy qismlari sifatida fonologik, leksik (semantik), morfologik, sintaktik va uslubiy (funktional) sathlar ajratiladi. Til tizim (butunlik) tabiatiga egaligi bois uning tarkibiy qismlari ham shunday xarakterda bo‘ladi.

<sup>1</sup> Хомский Н. Аспекты теории синтаксиса. М., 1972. – С. 259; Язык и мышление. М., 1972. – С. 122.

Tilning tizim sifatida izoxlanishi F.de Sossyur, V.Gumboldt va boshqa tilshunoslarning asarlaridan boshlangan. Til tizimi haqidagi hozirgi zamon tasavvuri esa o'z ichiga o'zaro aloqador bo'lgan til sathlari, til birliklari, paradigmatic va sintagmatic munosabatlar, tilning belgilar tizimi ekanligi, tilda shakl hamda vazifa (funksiya), struktura va substansiya, tilning ichki va tashqi aloqalari, sinxroniya va diaxroniya, analiz va sintez, doimiylik va muvaqqatlik kabi tushunchalarni ham qamrab oladi.

Til tizimini tashkil etuvchi tarkibiy qismlar bir-birini taqozo etadi. So'zlar ishtirokida so'z birikmasi, gaplar shakllanadi va nutq hosil bo'ladi. Bunda grammatik qurilish vositalari (affiks, yordamchi so'zlar, sintaktik vositalar) hamda so'z tartibi, inversiya, suppletivizm, tautologiya singari vositalar ham o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Til o'ta murakkab qurilishli ijtimoiy hodisa bo'lib, uning negizini tashkil etuvchi til birliklari tizimlari asosida til qurilishining o'zaro bog'liq bosqichlari ajratiladi; bu bosqichlarga xos birliklar tizimi tilshunoslikning turli sohalarida o'rganiladi. Demak, o'xshash va farqli jihatlariga qarab, bir-biriga o'xshaydigan yoki o'xshamaydigan tillar turli tizimli tillar hisoblanar ekan.

Leksik maydon - ma'lum ma'no yozuvlarini baham ko'radigan leksik birliklar (so'zlar) to'plamidan iborat. To'planning barcha a'zolari bir xil grammatik sinfga tegishli (ismlar, sifatlar, fe'llar). Bundan tashqari, ularning barchasi tegishli ma'no doirasini to'liq qamrab oladi, lekin aniq qarama-qarshiliklarni ham ko'rsatadi.<sup>2</sup>

Leksik maydonga misol qilib yuqoridagi "KO'NGIL" mavzusini o'zida aks ettiradigan hissiy so'zlar: ko'ngli yorishmoq, xursand bo'lmoq, kayfiyati ko'tarilmoq, ko'ngli chog' bo'lmoq, ko'ngli tog'day ko'tarilmoq kabi fe'l so'z turkumiga mansub so'zlar kiradi. Ular bir xil grammatik kategoriyani ifodalaydi.

Leksik maydon tushunchasiga kelsak, u birinchi bo'lib 1931 yil 12 martda nemis tilshunosi Yost Trier (1894-1970) tomonidan kiritilgan. Uning nazariyasiga ko'ra, tilning so'z boyligi mozaikaga o'xshaydi.

Shaxsiy so'zlarning har biri uning bir qismini anglatadi. Ular leksik maydonlar deb nomlangan katta birliklarga birlashtirilgan.

O'z navbatida, ushbu mozaikalarning birlashishi umumiy so'z boyligini tashkil etadi. Shu tarzda, leksik birlikning ma'nosi boshqa bir katta tizim deb nomlangan boshqa integral birliklarning ma'nosiga bog'liqdir. Ushbu tizim yangi ma'nolarning paydo bo'lishi tufayli doimiy ravishda o'sib boradi. Ya'ni so'z o'z ma'no doirasini kengaytirib boradi. Misol uchun:

Dastlab, ko'ngil so'zi - kishining his-tuyg'u va kechinmalari manbai; yurak, qalb, dil degan ma'nolarni anglatgan.

*Ko'nglida yaxshi niyatlari ko'p.*

*Ko'nglim quvonchlarga to'ldi.*

*Baxt, iqbol, farovonlik orzulari ko'ngilda to'la, ammo bu damda bir parcha chapatiga zorlik qanday musibat.* (Oybek, Nur qidirib)

— *Ko'nglimda tariqdek yomonlik bo'lsa, ertagacha yetmayin.* (A. Qodiriy, O'tgan kunlar)

*Nigoraning ko'nglini qandaydir g'amgin his-tuyg'ular egallab oldi.* (S. Anorboyev, Oqsoy)

*Aslida esa hozir uning ko'nglida bir-biriga zid, asov tuyg'ular junbishga kelib, jism-u jonini goh bezovta qilsa, goh halovatli kechinmalarga g'arq etayotgan edi.* (S. Siyoyev, Yorug'lik)

Keyinchalik esa "ko'ngil" semasi so'zlashuv va adabiy uslublarda o'z ma'nosini kengaytirdi va "fe'l-atvor, xarakter, xulq" kabi so'zlarning ma'nodoshiga deyarli yaqin bo'ldi.

*Jahldan tushgandan keyin yana yumshab qolasiz, rais, ko'nglingiz bo'sh.* (S. Ahmad, Qadrdon dalalar)

<sup>2</sup> Eskandell Vidal, M. V. (2011). Leksik semantikaga oid eslatmalar. Madrid: tahririyat UNED.

Shuningdek, “ko’ngil” so’zi qatnashgan ushbu birikma ham o’z ma’nosidan uncha uzoqlashmagan holda, quyidagi ma’nolarga ega:

Bir ko’ngli - bir qur taxmin qilib, ichida gumonsirab, bir xayol bilan.

*Bir ko’ngli, bu gapni qozi topib kelgandir, deb o’yladi.* (M. Ismoiliiy, Farg’ona tong otguncha)

*Borgan yerigacha kuydirib bordi. Bir ko’nglim, Zahar berib qo’ydimi? deb qo’rqdim.* (M. Ismoiliiy, Farg’ona tong otguncha)

Bu “ko’ngil” semantikasining o’zbek tilidagi ma’no maydoni edi. Agar turli tizimli tillarga yuzlanadigan bo’lsak, o’xshash va farqli jihatlarini albatta ko’plab topish mumkin. Chunki jamiyatdagi barcha tillar bir-biriga o’xshaydi, ammo ular joylashuv o’rniga va “bobo tillar”iga ko’ra katta tafovutni tashkil etishi ham mumkin. Bu birgina sabab bo’la olmaydi. Til – o’zi paydo bo’lgan jamiyat, madaniyat va insonlar bilan chambarchas bog’liqdir, demak, bir millatning dini, joylashuvi, an’anasi, urf-odatlarini, madaniyat va mentalitetiga ko’ra ham semantika o’zgarib, sayqallanib boorish xususiyatiga ega.

Misol uchun, hind tilida ko’ngil so’zini आत्मा (Aatma) deb yuritishadi va bizning o’zbek tilidan farqli o’laroq, uning ma’nosi quyidagicha:

Bu so’z Sanskritcha आत्मन् (Aatman), ya’ni “o’z, o’zi” so’zidan olingan bo’lib, “ruh” degan ma’noni anglatadi. Ya’ni ularning eski hindi tilida yozilgan qo’lyozmalariga ko’ra, tana shunchaki bir qolip, ruh esa bu dunyodagi vazifasini o’tashchun, tandan foydalanadi. U hechqachon o’lmaydi, aksincha bir tanadan chiqib, boshqasiga kiradi. Albatta, bu hindlarning e’tiqodi va dini bilan keskin bog’liqdir.

Yoki fransuz tilidagi “**âme**” ya’ni ko’ngil so’zini bir tahlil qilaylik. U lotincha “anima” so’zidan kelib chiqqan bo’lib, tub ma’nosi “nafas, yel” degan ma’noni anglatadi. Bu shunchaki tilimizdagi nafas so’zigina emas, balki Muqaddas kitob “Bibliya” dan olingan “insonga hadya qilingan umr, hayot nafasi” degan ma’noni anglatadi.

Yuqorida ko’ngil so’zini uch xil tilde tahlil qildik. Tillarning barchasi har xil tizimli til albatta va shuning uchun ham ularda so’z ma’nosi har xil ma’nolar anglatmoqda va ushbu so’zlarning etimologiyasi ham turlichadir,

Demak, xulosa qilib aytadigan bo’lsak, tildagi va nutqdagi so’z ma’nolarining kengayishi va torayishi, frazali birliklar hosil qilishi, o’z ma’nosini o’zgartirishi faqatgina ma’lum bir tilning o’zigagina, va yoki morfologiya, leksika kabi sohalariga emas, ma’lum millatning dini, urf-odati, madaniyati, mentalitetiga ham bog’liqdir.

Chunki til jonli kommunikativ jarayondir. Agar u o’z shaklini, hajmini, ma’nolarini muntazam o’zgartirib turmasa va zamon bilan hamnafas bo’lmasa, o’lik tillar qatoriga kirib qoladi.

Biz yuqorida tahlil qilgan “ko’ngil” semantikasi ham aynan ushbu lingvistik hodisalar hosilasidir.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Eskandell Vidal, M. V. (2011). Leksik semantikaga oid eslatmalar. Madrid: tahririyat UNED.
2. Iskandarova Sh. O`zbek tili leksikasini mazmuniy maydon sifatida o`rganish (shaxs mikromaydoni). Filol. fan. d-ri... diss. –Toshkent, 1999.
3. Iskandarova Sh. Til sistemasiga mazmuniy maydon asosida yondashuv. Toshkent: Fan. 2007-yil.
4. Караулов Ю.Н. Общая и русская идеография. – Москва: Наука, 1976
5. Караулов Ю.Н. Русская языковая личность и задача её изучения // Язык и личность. – М., 1989. – С. 3-8.

6. Iskandarova Sh. O`zbek tili leksikasini mazmuniy maydon sifatida o`rganish (shaxs mikromaydoni). Filol. fan. d-ri... diss.–Toshkent, 1999. 23-b.
7. Mirzaqulov T. O`zbek tili morfem paradigmaticasi va sintagmatikasi masalalari. Filol. fan. d-ri... diss. –Toshkent, 1994. 18-b.
8. Хомский Н. Аспекты теории синтаксиса. М., 1972. – С. 259; Язык и мышление. М., 1972. – С. 122.
9. Yusupova, S. (2022). ИЖТИМОЙ ГУРУХЛАРДА ХУРМАТ КАТЕГОРИЯСИ ИФОДАЛАШ. Science and innovation, 1(B5), 350-352.
10. A'zamjonovna, Y. S. (2022). INGLIZ TILIDA EMOTSIYALARNING GRAMMATIK IFODALANISHI. PEDAGOGS jurnali, 20(2), 65-68.
11. To'lanboyeva, G., Yusupova, S., & Mirzayeva, D. (2022, November). CULTURE AND LINGUISTICS. RELATIONSHIPS. In INTERNATIONAL CONFERENCE: PROBLEMS AND SCIENTIFIC SOLUTIONS. (Vol. 1, No. 6, pp. 82-88).
12. M. Axunova, & S. Yusupova (2022). SON KATEGORIYASINING QO`LLANILISHI VA UNING INGLIZ VA O`ZBEK TILLARIDA QIYOSLANISHI. Science and innovation, 1 (B7), 736-739.
13. G. Tolanboyeva, & S. Yusupova (2022). LINGVOKULTUROLOGIYA O`RGANILISH TARIXI. Science and innovation, 1 (B6), 540-543.
14. Юсупова, С. А. (2022, September). ЎЗБЕК ТИЛИ ТИПОЛОГИЯСИДА ХУРМАТ КАТЕГОРИЯСИ. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE" THE TIME OF SCIENTIFIC PROGRESS" (Vol. 1, No. 1, pp. 10-14).
15. Юсупова, С. А. (2022, September). ЎЗБЕК ТИЛИДА ХУРМАТ ИФОДАЛАШНИНГ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE" INNOVATIVE TRENDS IN SCIENCE, PRACTICE AND EDUCATION" (Vol. 1, No. 1, pp. 10-14).
16. Sabohatxon, Y., Zilolaxon, T. Y., & Shaxlo, Y. L. (2022). EXPRESSION OF METAPHOR IN DIFFERENT SYSTEM LANGUAGES. RESEARCH AND EDUCATION, 1(2), 209-212.
17. A'zamjonovna, Y. S. (2022). GARRI POTTER HIKOYASIDA ME'MORCHILIK. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(12), 1103-1104.
18. Maftuna Erkin qizi, J. ., Kamilla Andreyevna, P. ., Sabohat A'zamjonovna, Y., & Farhod Faxriddinovich, U. . (2022). MEDIA DISCOURSE FEATURES. Scientific Impulse, 1(3), 561–565.
19. Odilova Mavluda To'Lqinjon Qizi, & Yusupova Sabohatxon A'Zamjonovna (2022). JAMAL KAMAL'S TRANSLATION OF SHAKESPEARE'S WORKS. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali, 1 (12), 101-104.